

## O'ZBEK ONOMASTIKASI ANTROPONIMIK BIRLIKLARI HAQIDA

**Jumayeva Sevara,**

*Qarshi davlat universiteti,*

*O'zbek tilshunosligi kafedrasida 2-kurs magistri*

**Ilmiy rahbar: S.Kenjayevara,**

*Qarshi davlat universiteti dotsenti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek onomastikasining ko'p tadqiq etilgan bo'limidan biri antroponimika va uning birliklari to'g'risida, antroponimika va antroponimiya, tarixiy antroponimiya, bu borada tadqiqot ishi olib borgan olimlar fikrlari, tarixiy antroponimlarning o'zbek tilshunosligida o'rganilish darajasi va qilinishi lozim bo'lgan ishlar, vazifalar, qolaversa, o'z tadqiqotini kutayotgan mavzular haqida ham to'xtab o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** onomastika, antroponim, antroponimika, tarixiy antroponim, antroponimik birlik, ism, laqab, taxallus, o'zbek tarixiy nomshunosligi.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается один из наиболее изученных разделов узбекской ономастики - антропонимика и ее единицы, антропонимика и антропонимия, мнения ученых, проводивших исследования в этой области, уровень изученности исторических антропонимов в узбекском языкознании и предстоящие работы, задачи, а также темы, ожидающие своего исследования.

**Ключевые слова:** ономастика, антропоним, антропонимика, исторический антропоним, антропонимическая единица, имя, прозвище, псевдоним, узбекская историческая номенклатура.

**Abstract.** This article examines one of the most studied branches of Uzbek onomastics - anthroponymy and its units, anthroponymy and anthroponymy, the opinions of scholars who have conducted research in this field, the level of study of historical anthroponyms in Uzbek linguistics and upcoming works, tasks, as well as topics awaiting their study.

**Keywords:** onomastics, anthroponym, anthroponymy, historical anthroponym, anthroponymic unit, name, nickname, pseudonym, Uzbek historical nomenclature.

**Kirish va dolzarbliqi.** Bugungi kun o'zbek onomastikasining eng muhim bo'limlaridan biri bu antroponimikadir. O'zbek tilida antroponim termini o'rnida ism, kishi ismi, odam otlari, kishi nomlari kabi terminlar ham qo'llaniladi. Rus tilshunosi N.V.Podolskaya esa antroponim termini haqida fikr yuritir ekan, uning tarkibiga ism, otchestvo, familiya, laqab, taxallus, kriptonim (laqab, ism, nom), andronim (muallifning o'z ismi), patronim (shaxsni avlod-ajdodlari nomi bilan atash), genonim (urug', avlod-ajdod va ularning tarmoqlari atoqli oti) kabilar kirishini qayd qilgan[1]. Bundan ko'rinadiki, rus tilshunosligida antroponim keng qamrovli birlik sifatida qayd etilgan.

Biror tildagi kishi nomlari majmui antroponimiya deb yuritiladi. Masalan, o'zbek antroponimiyasi, qozoq antroponimiyasi kabi. Antroponimlarni tadqiq qiluvchi soha esa antroponimika deb nomlanadi va onomastikaning bu bo'limi antroponimlarning lisoniy va nolisoniy xususiyatlarini tadqiq qiladi[2].

**Metodlar va o'rganilish darajasi.** Antroponimika odamlar(shaxslar)ning atoqli otlarini tadqiq qiluvchi ilmiy yo'nalish sifatida o'zbek tilshunosligiga o'tgan asrning 60-yillaridan kirib keldi. O'tgan davr mobaynida o'zbek tilidagi kishi nomlari yuzasidan olib

borilgan ilmiy va amaliy tadqiqotlar tufayli antroponimika endilikda o'zbek onomastikasining rivojlangan bo'limiga aylandi[3].

Hozirgi vaqtda tilshunoslikda antroponimik birliklar deyilganda nafaqat kishilarning ismi familiyasi, otasmi, taxallusi va laqablari ham tushuniladi.

Quyidagilar o'zbek antroponimiyasining birliklaridir: a) ismlar; b) laqablar; v) taxalluslar; g) o'zbeklarda shaxsni nomlashning o'tmishda mavjud bo'lgan ba'zi shakllari ("qizi", "o'g'li") yordamida nomlash; d) shaxsni uning ismiga o'tmish ajdodlarini nomini tiklash orqali atashning arabcha shakllari ("ibn", "binni") yordamida. O'zbek tiliga o'tmishda kirgan arabcha atash usullari o'zbek antroponimiyasida XIX asr oxiri – XX asrning birinchi choragigacha saqlanib keldi, ammo ruscha shakl familiyalar udum bo'lgach, iste'moldan chiqdi hamda o'zbek antroponimiyasida o'tmishda iste'molda bo'lgan arxaik hodisaga aylandi; ye) o'tgan asrning 20-30-yillaridan rasmiy ravishda majburan qabul qildirilgan ruscha familiya va otasmlari[4].

**Tadqiqot natijalari.** R.Nuriddinova o'z dissertatsiya ishida atoqli otlarni o'zaro farqli tiplarini tadqiq qiluvchi ilmiy yo'nalishlarni anglatuvchi terminlar sirasiga antroponimika, onomastikaning ilmiy sohalarini tarixiylik, zamonaviylik nuqtai nazaridan nomlovchi terminlar sifatida: tarixiy onomastika, o'zbek tarixiy nomshunosligi, o'tmish nomshunosligi kabi terminlarni misol sifatida ko'rsatadi.

U "Onomastik birliklarning tarixiy (davriy) mansubligiga oid tushunchalarni ifoda qiluvchi terminlar" bo'limida esa har qanday tildagi onomastik birliklar bir davrning mahsuli emasligini ta'kidlab, o'zbek onomastikasida onomastik birliklar tarixiylik davriy mansubligiga ko'ra ikki katta guruhga bo'lib tadqiq etilayotganligini e'tirof etdi: 1. Tarixiy nomlar. 2. Yangi zamonaviy nomlar. Tarkibida "tarixiy" so'zi qatnashuvchi terminlar: tarixiy nomlar, tarixiy antroponimiya, tarixiy ismlar; tarkibida "qadimgi", "azaliy" so'zlari qatnashgan terminlar: qadimgi nomlar, qadimiy yahudiycha ismlar, azaliy nomlar, qadimiy yunoncha ismlar[5] kabi.

Ma'lum bo'layaptiki, tadqiqotchi antroponim, antroponimiya, tarixiy nomlar, tarixiy antroponimiya, tarixiy ismlar kabi terminlarni misol sifatida o'z ishlarida keltirsalarda, tarixiy antroponim, tarixiy antroponimika, tarixiy antroponimiya tushunchalari va ularning farqli jihatlari, anglatgan ma'nolariga yetarlicha izoh berishmagan.

Professor N.Husanov esa o'z monografiyasida 15 asr yodgorliklaridagi badiiy antroponimlarni shartli ravishda 2 guruhga ajratgan: 1) an'anaviy ismlar; 2) to'qima ismlar[6]. Olimning aytishicha, badiiy asarlar tarkibidagi antroponimlar maxsus tadqiq qilinmagan. Sh.Yoqubovning "Navoiy asarlari onomastikasi" mavzusidagi tadqiqotda shoir asarlaridagi antroponimlar aralash tadqiq qilingan.

Tarixiy antroponim, tarixiy antroponimika, tarixiy antroponimiya terminlari va tushunchalarning bugungi maqomi, anglatgan ma'nolari hamda ilmiy tadqiqotlarda qo'llanishi haqida to'xtaladigan bo'lsak, tarixiy terminning ma'nosi tarixda qoladigan tarixga kiradigan, biror sohaning tarixini o'rganadigan ma'noga ega. Tarixiy onomastika,

tarixiy toponimiya, tarixiy roman. O‘tmishga, tarixga oid, qadimgi, ko‘hna. Tarixiy asar ma‘nolariga ega.

Demak, tarixiy termini ostida tarixda qolgan, biror sohaning unsuri, ya‘ni qadimgi davrlardagi tarixga oid, qadimgi, ko‘hna, o‘tmish ma‘nolari anglashiladi. Bundan ko‘rinadiki, tarixiy antroponim – tarixiy atoqli otning bir turi. Tarixda qolgan, bugungi kunda qo‘llanmaydigan, o‘tmish davrlardagi odamning ismi, familiyasi, ota ismi, taxallusi, laqabi: masalan, “Devonu-lug‘otit turk”da berilgan Abi – erkaklar ismi, Abu – kishi ismi, Azak – o‘g‘uz beklaridan birining ismi, Alp artun, Alp tegin – bahodir qul; kishining ismi, Alpin tarim – laqab, Barsxan kishi ismi; Afrosiyobning o‘g‘li, Bug‘ro Qorahoqon – Hoqoniya shohlaridan birining ismi[7]. N.Shomiynning “Zafarnoma”sida: Abochi, Ayoz, Amir G‘o‘riy, Bayon Sulduz, Darvishak[8] kabi. “Temuriylar” epopeyasida esa Alperto‘nga, Annosir, O‘zluqshoh, Kuchluk, Inonchixon, Subuday bahodir, Takinaxonim, Qayonxon, Temurtoshxon, Tortarxon, Mo‘g‘ulxon, Buqaxon, Tarbanxon, Qojuli, Oozonchi, Minglibug‘a[9] va boshqalar.

Xullas, o‘tmishda faol qo‘llanishda bo‘lgan va bugungi kunda arxaik hisoblangan, ya‘ni iste‘moldan chiqqan ko‘plab ismlar, taxallus va laqablar tarixiylik belgisiga ko‘ra tarixiy antroponimlardir.

E.Begmatov va N.Uluqovlarning “O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati”da tarixiy antroponim – tarixiy ismlar tarzida berilgan tarixiy antroponimiya terminiga *q-qarang* ishorasi bilan izohlangan. Tarixiy antroponimiya terminini olimlar ikki ma‘noda: 1. O‘tmish davrlarga tegishli, hozirda iste‘moldan chiqqan shaxs atoqli otlari; 2. Hozirda funksional bo‘lgan, ammo paydo bo‘lishiga ko‘ra o‘tmishga tegishli ismlar tarzida qo‘llashgan[10].

Atoqli ot turlari, taxallus, laqab, nisba va shaxsni atashlikning turli usullari ham antroponimikaning tadqiqot manbaidir. Masalan, Sohibqiron Amir Temur Tarag‘ay Bahodir Ko‘ragoniy. Bunda faqat Temur shaxsga xos ism. Amir – hukmdorlik darajasini anglatadi. Sohibqiron – Temurga zamondoshlari tomonidan berilgan sifat (asrning davr sohibi degan ma‘noni bildiradi). Tarag‘ay – otasining ismi. Bahodir uning laqabi, Ko‘ragon – xonga kuyovlik nisbasi[11].

Tarixiy antroponimikaning amaliy va nazariy vazifalarining mavjudlik holatining o‘ziyoq, unga qiziqish va uni o‘rganishning qadimiy tarixga egaligini ko‘rsatadi. Ming yillar davomida unga bag‘ishlab juda ko‘plab asarlar yozildi. Natijada antroponimlarni o‘rganuvchi nomshunoslikning alohida bir sohasi antroponimika – kishi atoqli otlari, ya‘ni antroponimlarning paydo bo‘lishi, rivoji va vazifaviy xususiyatlarini o‘rganuvchi alohida bo‘limi paydo bo‘ldi.

Tarixiy antroponimiya tarixiy atoqli otlar majmui, tarixiy antroponimlar esa o‘tmishdagi kishi ismlaridir. Shunday ekan tarixiy onomastika va tarixiy antroponimika, tarixiy antroponimiya, tarixiy antroponimlarning o‘rganish va tekshirish obyekti, ularning

tarkibiy qismlari va ma'nolari, farqli belgi xususiyatlarini belgilash g'oyatda muhim ahamiyatga ega.

E.Begmatov va N.Uluqovlar tomonidan tuzilgan "O'zbek onomastikasi"[12] bibliografik ko'rsatkichi 1254 nomdagi toponimlarni, 413 ta antroponimlarni o'z ichiga oladi. Ma'lum bo'ladiki, o'zbek onomastikasida eng ko'p o'rganilgan yo'nalishlar toponimika va antroponimika hisoblanadi. Ammo o'zbek tili tarixiy onomastikasi va tarixiy antroponimikasi bo'yicha amalga oshirilgan ishlarimiz talablar darajasida emas.

Ayniqsa, bu borada E.Begmatov N.Husanov, Sh.Yoqubov, B.Boqiyevlarning "O'zbek tarixiy nomshunosligining dolzarb muammolari"[13] nomli maqolasi diqqatga sazovor. Unda hozirgi kunda o'zbek tili nomshunosligi va antroponimikasi bilan shug'ullanayotgan tadqiqotchilar oldiga yetti bandedan iborat o'zbek tarixiy antroponimiyasini tadqiq qilish bilan bog'liq vazifalarni sanab o'tishgan: 1. O'zbek tili tarixida mavjud bo'lgan va ko'plab tarixiy yozma yodgorliklar hamda tarixiy asarlar tilida saqlanib turgan son-sanoqsiz atoqli otlar, ularning paydo bo'lishi, yasalishi va shakllanishi, ma'no va vazifaviy xususiyatlari, boshqa xil lisoniy hamda tarixiy-madaniy, ma'rifiy tomonlari fan uchun qorong'iligicha qolmoqda. 2. O'zbek tarixiy antroponimiyasining barcha kategoriyasi va komponentlarini – kishi ismlari, laqablar, taxalluslarni, o'tmishda o'zbeklar uchun ham rusum bo'lgan nomlarning arabcha, ba'zi forsha-tojikcha shakllarini har tomonlama o'rganish muhimdir. 3. Bevosita antroponimiya majmuiga kirmasa ham, ammo odam, inson shaxsini anglatuvchi, u bilan bog'liq tasavvurni ifoda etuvchi ba'zi xayoliy, afsonaviy, majoziy, to'qima ism va laqablarni tadqiq etish zarur. 4. O'zbek tarixiy antroponimiyasini o'rganish, eng avvalo, ikki maqsadni ko'zda tutadi. Birinchisi nomlarning turli tarixiy davrlardagi holati va rivojini tadqiq qiladi. Ikkinchisi alohida olingan yozma obidalar, tarixiy yozma manbalar tilidagi nomlarni o'rganish.

**Xulosa.** Demak, bugungi kungacha, o'zbek tili tarixiy antroponimiyasi, qolaversa, ba'zi bir temuriylar ismlarining lingvistik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha yagona va salmoqli tadqiqot N.Husanov tomonidan bajarilgan. U o'zbek antroponimlari bo'yicha qilingan ishlarni mavzusi va muammolariga ko'ra 5 guruhga bo'lib ilmiy tasnif qilish zarurligini ta'kilagan: 1.Antroponimlarnig umumnazariy masalalari. 2.Antroponimlar imlosi. 3.Badiiy asarlar va folklor antroponimiyasi. 4.Antroponimik lug'atlar. 5.Antroponimlar tarixi.

U bizning mavzumizga oid "Antroponimlar tarixi" haqida fikr yuritib, ismlar tarixini o'rganish bilan bog'liq masalalardan biri tarixiy ismlar tushunchasini konkretlashtirish va tarixiy nomlar majmuini zamonaviy ismlar fondidan farqlash, chegaralash masalasini o'rta qo'yadi[14]. Bu turkumdagi nomlarning bir qismi hozirgi o'zbek ismlari fondida mavjudligi, qo'llanishi, ular ham tarixiylik, ham zamonaviylik xususiyatiga egaligini Ulug'bek, Tangriberdi, O'lmas, O'tkir, Temir ismlari misolida asoslab, bunday nomlar ham tarixiylik, ham zamonaviy xususiyatlarga ega ekanligini isbotlab bergan.

“O‘zbek antroponimlar tarixi” asarida ta’kidlashicha, Amir Temur haqida yuzlab asarlar yaratilgan bo‘lsa-da, uning va avlodlarining ismlari maxsus o‘rganilmagan. Bu yo‘nalishda ko‘plab tadqiqotlar olib borish to‘g‘risida alohida ta’kidlab o‘tilgan.

Mazkur “Temuriylar” eposiyasida XV asr yozma manbalarida zikr etilgan Temuriylarning ba’zi ismlari to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar keltiriladi. Temuriylarga tegishli ba’zi ismlarning qaysi tilga mansubligi, ma’nolari, qo‘llanishi tahlil qilinadi. Temur, Abdulatif, Boyqaro, Boysung‘ur, Mironshoh, Ulug‘bek[15] va boshqa ismlarga lisoniy-tarixiy jihatdan izohlar beriladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: С. 31.
2. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 11.
3. Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 260.
4. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 11.
5. Нуриддинова Р. Ўзбек ономастикаси терминларининг лисоний таҳлили: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2005. – Б. 9-10.
6. Хусанов Н.А. Ўзбек антропонимлари тарихи. Моногорафия. – ТМИ, 2014. – Б.63.
7. Кошғарий М. “Девону луғотит – турк” (Туркий сўзлар девони). Гаржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. 1-том: - Тошкент: Фан, 1960.
8. Шомий Н. “Зафарнома” – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – Б. 451-452.
9. Qobul Nurali. “Temuriylar” eposiyasi.
10. Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган: 2006. –Тошкент. – Б.73.
11. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд. . – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2000. – Б.372.
12. Бегматов Э. Ўзбек ономастикаси: библиографик курсаткич / Э. Бегматов, Н. Улуков. – Тошкент, 2008.
13. Бегматов Э ва бошқалар. Ўзбек тарихий номшунослигининг долзарб муаммолари// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1992. – Б.21-26.
14. Хусанов Н. Ўзбек антропонимлар тарихи. – Тошкент, 2014. – Б.12 .
15. Хусанов Н. Ўзбек антропонимлар тарихи. – Тошкент, Наврўз, 2014. – Б.14-15 . Кўрсатилган асар.2014. – Б.76-82.